

**Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida yetishtirilgan *Glicina hispida L*  
va *Linum usitatissimum* o‘simlik poyalaridagi aminokislotalari va elementar  
tarkibi.**

**D.R.Tojiboyev- Kimyo kafedrasi doktoranti,  
N.SH.Azimov- Kimyo kafedrasi o‘qituvchisi,  
M.Yu.Isaqov- kimyo fanlari nomzodi, dotsent,  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya**

Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida yetishtirilgan zig‘ir va soya o‘simliklari poyalarining elementar va oqsil amiokislotalri tarkibi induktiv bog‘langan argon plazmali mass-spektroskopiya hamda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida o‘rganildi. O‘simlik poyalarida 35 ta makro-mikro elementlar, 20 ta oqsil xosil qiluvchi aminokislotalar mavjudligi aniqlandi. Ularnin chorvachilikda qo‘llanilishiga oid muloxazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** zig‘ir va soya o‘simlik poyalari, argon plazmali mass-spektroskopiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi.

**Аннотация**

Методами масс-спектроскопии с индуктивно-связанной аргоновой плазмой и высокоэффективной жидкостной хроматографии изучен элементный и белковые аминокислоты состав стеблей льна и сои, выращенных в Учкотприкском районе Ферганской области. Установлено, что стебли растений содержат 35 макро-микроэлементов, 20 белокобразующих аминокислот. Приведены соображения по поводу их использования в животноводстве.

**Ключевые слова:** стебли растений льна и сои, аргоноплазменная масс-спектроскопия, высокоэффективная жидкостная хроматография.

**Annotation**

Using mass spectroscopy with inductively coupled argon plasma and high-performance liquid chromatography, the composition of elemental and protein amino acids of flax and soybean stems grown in the Uchkoprik district of the Fergana region was studied. It has been established that plant stems contain 35



macro-microelements and 20 protein-forming amino acids. Considerations are given regarding their use in animal husbandry.

**Key words:** flax and soybean plant stems, argon plasma mass spectroscopy, high-performance liquid chromatography.

Chorva hayvonlarini boqishda ularga beriladigan ozuqa tarkibini har tomonlama o‘rganish, kimyoviy tarkibini tadqiq etish va yem-xashakbob ozuqalarning arzon va sifatli yangi turlarini izlab topish dolzarb muammolardan sanaladi. Ozuqalarning kengroq tadqiq etish kelgusida chorvachilik maxsulotlarini yanada sifatli va sermaxsul bo‘lishiga olib keladi. Bu ko‘p jihatdan o‘simliklarning kimyoviy tarkibini chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi [1-2].

Ushbu maqolada moy beruvchi o‘simlik sifatida ekiladigan soya (*Glicina hispida L*) va zig‘ir (*Linum usitatissimum*) o‘simliklarining poyasi tarkibidagi oqsil miqdori va aminokislotalar hamda elementlar tarkibini o‘rganish natijasida olingan ma’lumotlar tahlil qilindi.

Chorvachilik bizning o‘lkamizda qadimdan rivojlangan sohalardan biri bo‘lib, chorva hayvonlarini boqishda ularga beriladigan ozuqalarning sifati va to‘yimligiga katta e’tibor qaratiladi. Ma’lumki, ozuqalarning sifati ozuqa birligi bilan baholanadi [3]. Ozuqalarning to‘yimligini, uning sifatini har xil usullarda aniqlash mumkin. Ozuqa birligi Markaziy Osiyo Davlatlari hududida 1922-yili qabul qilinib, shu davrgacha ishlab chiqarishda va ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilib kelinmoqda. Bir ozuqa birligi 1 kg quruq suli donining to‘yimligiga tenglashtirilgan. Ammo suli to‘yimligi bo‘yicha barcha ozuqalarning to‘yimligini aniqlash usuli bilan to‘la ma’lumotga ega bo‘lish mumkin emas. Shuning uchunchorva ozuqalari kimyoviy tahlildan o‘tkazilishi lozim. Kimyoviy tahlilda albatta, oqsil, yo‘g, karbon suvlari aniqlanadi. Zamonaviy ozuqa birligi esa bu quvvat birligidir. Buni aniqlash uchun oqsil, yo‘g, karbon suvlari quvvati aniqlanadi va shunga ko‘ra maxsulotning ozuqa quvvatiga baho beriladi.

Oqsilning sifati uning tarkibidagi aminokislotalar turiga bog‘liq. Almashinmaydigan aminokislotalar guruhiba *lizin*, *triptofan*, *leytsin* va boshqalar kiradi. Bu aminokislotalar hayvon organizmida bo‘lmaydi, shuning uchun bu moddalar ozuqalarda bo‘lishi kerak, aks holda modda almashinuvi buziladi, chorvalarning mahsuldarligi pasayadi[4].

Shu bilan birgalikda hayvon ozuqasi tarkibida mineral moddalarining mavjudligi

muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga hayvon organizmidagi to‘qimalarda 40 ga yaqin mineral moddalarning aniqlangani asos bo‘la oladi. Ammo aniqlangan minerallardan 15 tasi fiziologik faoliyat uchun zarurligi aniqlangan, bundan tashqari to‘liq o‘rganilmagan elementlar ham mavjud: bularga ftor, brom, bariy va stransiy elementlari kiradi[5].

Mineral moddalar ikki guruhgaga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Makroelementlar - kalsiy, fosfor, kaliy, natriy, xlor, magniy va olingugurt.
2. Mikroelementlar - temir, rux, mis, marganets, kobalt, molibden va selen.

Ayrim turdag'i elementlarning yetishmasligi chorva organizmlarida fiziologik funksiyalarning buzilishiga olib keladi. Masalan: temir, kobalt elementlaridan birontasi yetishmasa gemoglabinning sintezlanishi keskin kamayib ketadi. SHuning uchun hayvonlar ratsioniga qo‘sishma xolda mineral moddalarni ayniqsa mikroelement tuzlarini qo‘sishda juda extiyotkorlik talab etadi. Mis, ftor, selen, molibden ozuqada me'yordan ziyod tushsa organizmni zaxarlaydi, ayrim xollarda chorvaning nobud bo‘lishiga olib keladi.

**Kalsiy** barcha elementlarga nisbatan organizmda ko‘p saklanib uning 99% suyak va tishda bo‘ladi. Suyak kuli 38% Ca, 17% P va 1% Mn saqlaydi.

**Fosfor** - organizmda mavjud fosforning 80% suyakda va tishda bo‘ladi, qolgan 20% fosfoproteid, nuklein kislotasi va fosfolipidlar tarkibida uchraydi. Bu element uglevod va energiya almashinuvida muhim rol o‘ynaydi. Organizmda fosforning almashinushi kalsiy almashinushi bilan bog‘liqdir. Ular yetishmaganda yosh hayvonlarda raxit kassaligi, katta yoshdagilarda esa osteomalyasiya vujudga keladi.

**Kaliy, natriy, xlor.** Bu elementlarning boshqa elementlardan saqlanishidagi farqi shundan iboratki ular tananing suyuq qismida va yumshoq to‘qimalarida bo‘ladi. Osmotik bosimning normal bo‘lishida qon va limfaning aktiv reaksiyasining boshqarilishida va organizmda suv boshqarilishida ishtirok etadi.

**Magniy** - hayvon organizmida modda almashinuvida magniy, kalsiy va fosfor bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Yosha o‘suvchi buzoqlar faqat sut bilan oziqlantirilganda, organizmlarida magniyning etishmasligi kuzatiladi, ayniksa bu element suyak, qon zardobida kamayib ketib tetoniya kasalligiga olib kelib, o‘lim bilan tugashi kuzatiladi [6].

Ozuqa tarkibida mikroelementlar juda kam miqdorda uchrab muhim fiziologik ro‘lni bajaradi.

Vitaminlarga o‘xshab ayrim mikroelementlar oqsillar birikmasida uchrab maxsus



fermentlar hosil qiladi. Mikroelementlar, vitaminlar bilan birgalikda biologik aktiv moddalar guruhini tashqil etadi.

**Temir** - uning 90% hayvon organizmida xar hil oqsillar bilan birikkan holda bo‘ladi, uning 50 % qon gemoglobinida, 20% taloqda, jigarda, buyrakda va orqa miya oqsili ferritin shaklida uchraydi. Kupgina fermentlar tarkibiga kiradi. Organizmda siderfilin oqsili yordamida organ va to‘qimalarga tashiladi. Gemoglobin metabolizimida ajralgan temir yana qaytadan tarkibida temir saqlovchi oqsillar sintez bo‘lishida ishtirok etadi. SHuning uchun temirga bo‘lgan talabning 10 % ozuqa orqali ta’milanadi. Ratsionda temir moddasining me’yordan ko‘p bo‘lishi ozuqadagi proteindan foydalanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatish mumkin.


Barcha qishloq xo‘jalik hayvonlarining ratsiondagи quruq moddaning 1 kg hisobiga 50 mg temir talab qilinadi[7].

**Mis** - bu modda gemoglobinning hosil bo‘lishi uchun zarur. Mis gemoglobin tarkibiga kirmaydi, ammo qizil qon tonachalari tarkibida bo‘lib, qon aylanishida ularning aktivligini oshiradi. Hayvon organizmining barcha to‘qimalarida uchraydi, ayniqsa jigarda ko‘p bo‘lib unda zaxira sifatida to‘planadi. Mayin jun beruvchi qo‘y zotlarida mis yetishmaganda junining jingalaklanishi buziladi.


**Kobaltning fiziologik ro‘li** vitamin B<sub>12</sub> aniqlangandan keyin ma’lum bo‘ldi. CHunki kobalt bu vitamining (4,5%) tarkibiga kiradi. Kobalt yetishmaganda qoramollarda va qo‘ylarda akaboltoz yoki suxotka kasalligiga chalinadi. Kasallik darmonsizlikdan boshlanadi, mahsuldarlik pasayadi, jinsiy funksiya buziladi, kam qonlik bo‘ladi va ozib ketadi. Kobalt yetishmaganda kavshovchi hayvonlar ratsioniga kobalt sulfitini qo‘sib berish mumkin[8].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni inobatga olgan holda Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida joylashgan “Dilnoza-Dilshoda” fermer xo‘jaligida, bir xil sharoitda yetishtirilgan soya va zig‘ir o‘simliklarining poyalari o‘rganish uchun tadqiqot obekti sifatida tanlab olindi. Poyalardan urug‘lari ajratib olinib, qoldiq poyalar analiz uchun tayyorlandi.

Ozuqa uchun eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan oqsil miqdori aniqlandi. Oqsil miqdorini aniqlashda Keldal usulidan foydalanildi. Bu usulning mazmuni, azot miqdorini aniqlash orqali umumiyl oqsil miqdorini hisoblashdan iborat. Usulning mohiyati namunadagi organik moddalarni kontsentrlangan sulfat kislotasi yordamida gidroliz qilib (oqsil tarkibidagi amin guruhlarini ) ammoniy sulfat tuzlarini hosil qilishdan iborat.



Gidroliz tugaganidan so‘ng hosil bo‘lgan ammoniy sulfat ammiakga aylantirish uchun natriy gidroksid ta’sir ettirildi.



Neytrallanish natijada hosil bo‘lgan ammiak yoki ammoniy gidroksid sulfat kislota eritmasiga yutтирildi.

Qolgan kislota ishqor eritmasi bilan titrlandi. Hisoblab topilgan ammiak miqdoridan azot miqdori hisoblab topildi. O‘rganilayotgan namunaning o‘rtacha maydalangan bir jinsli namunasidan probirkaga tahlil qilish uchun aniq namuna tortildi, xatolik darajasi 0.1% dan oshmasligiga e’tibor qaratildi. Namuna miqdoriy jihatdan Keldal kolbasida o‘tkazildi. Tajriba davomi ko‘rsatmaga muvofiq amalgam shirildi [9].

Olingan natijalarini qayta ishlash: tahlil qilinayotgan namunadagi azotning (X) massa ulushi ammiakni suyultirilgan sulfat kislotadan o‘tkazib qolgan miqdorni titrlashdan keyingi hajm orqali namuna massasiga nisbatan foizda (a) formula bo‘yicha hisoblab topildi.

$$a) X = \frac{(V_1 - V_0) * K * 0.0014}{m} * 100\%$$

Bu yerda:  $V_0$ -namuna tajribasida ortib qolgan 0.1 mol/l sulfat kislota eritmasini titrlash uchun sarflangan 0.1 mol/l natriy gidroksid eritmasining hajmi, ml

$V_1$  – tekshirilayotgan eritmadi H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ni titrlashga sarf bo‘lgan NaOH ning 0,1 mol/l eritmasi hajmi, ml;

$K$  – 0,1 mol/l NaOH eritmasining titriga tuzatish koyfitsenti;

0,0014 – H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning 1 ml 0,05 mol/l ga ekvivalent bo‘lgan azot miqdori;

$m$  – namuna miqdori, g

har bir namunaning analizi 5 martadan takrorlandi, olingan natijalar butun sondan keyin o‘nlik qiymatgacha yaxlitlandi.

Azotning moddaga nisbatan massa ulushi foizlarda (X<sub>3</sub>) quyidagi (b) formula yordamida hisoblandi:

$$b) X_3 = \frac{X_1 * 100}{100 - W}$$

Formuladagi:

$X_I$  – tekshirilayotgan namunadagi azotning massa ulushi, %;

$W$  – tekshirilayotgan namunaning namligi, %.

Oqsilning massa ulushi ( $Y$ ) quyidagi (d) formula yordamida hisoblanadi:

$$d) \quad Y = K \times X$$

Bu yerda  $K$  – azotning oqsilga nisbatan hisoblash koyfitsenti.


Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

### **1-jadval**

#### **Ayrim moy beruvchi o'simliklar poyasidagi oqsil miqdori**

<b>O'rganilgan namunalar</b>	<b>Oqsil miqdori C%</b>
Soya poyasi	2,571
Zig'ir poyasi	3.906

Olingan natija, zig'ir o'simligi poyasidagi oqsil miqdori soya poyasidagi oqsil miqdoridan ko'p ekanligini ko'rsatdi. Bu esa zig'ir poyasidan chorvachilikda oqsilga boy ozuqa sifatida foydalanishga asos bo'la oladi. Soya va zig'ir poyalari tarkibidagi oqsil miqdorining farqini diagrammada ham ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Soya va zig'ir o'simligi poyalari tarkibidagi oqsil miqdori diagrammasi**


O'rganilgan adabiyotlarda soya poyasi tarkibida 2-4,8 % protein, 1,5-2,9 % moy saqlashi va 100 kg soya poyasi 32 ozuqa birligiga teng va 5,3 kg proteinni o'z ichiga olishi hamda soya somonini qo'y va echkilar yaxshi iste'mol qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. [10].

Olingan oqsillar tarkibidagi aminokislotalarni o'rganish maqsadida yuqori samarali suyiqlik xromotografiyasi usulida idintifikatsiya qilindi. Xromatografiyalash quyidagi




sharoitda amalga oshirildi: xromatograf Agilent technologies DAD 1200 dedektorli, kolonka -75\*4,6 mm Discovery HSC 18. Eritma A: 0.14 M CH<sub>3</sub>COONa + 0.05% TEA pH 6.4 ; B: CH<sub>3</sub>CN. Oqim tezligi 1.2 ml/minyutilish 269 nm. Gradient % V/mm: 1-6 %/0-2.5 min; 7-30%/2.51-40 min; 31-60%/40.1-45 min; 60-60%/45.1-50 min; 60-0% / 50.1-55 min.

Zig‘ir va soya o‘simliklari poyalari oqsillari aminokislotalarining xromatogrammalari 2-va 3- rasmlarda keltirilgan.



2-rasm. Zig‘ir o‘simligining poyasidagi aminokislotalar xromatogrammasi



3-rasm. Soya o‘simligi poyasidagi aminokislotalar xromatogarammasi

Olingen xromatogrammalar tahlili 2-jadvalda umumlashtirildi. Zig‘ir poyasida 20 ta, soya poyasida 19 ta aminokislotalar aniqlandi. Ulardan barcha 10 ta almashinmaydigan aminokislotalar mavjud.

*2-jadval*

**Zig‘ir va soya o‘simligi poyalaridagi aminokislotalar miqdori mg/g**

<b>Nº</b>	<b>Aminokislotalar nomi</b>	<b>Zig‘ir poyasi</b>	<b>Soya poyasi</b>
1	Alanin	<b>0,981029</b>	0,055201
2	Asparagin	<b>0,585154</b>	0,182841
3	Treonin	<b>0,563376</b>	0,239492
4	Gulitamin	<b>0,533533</b>	0,270584
5	Gistidin	<b>0,48575</b>	0,136927
6	Sistein	0,390164	<b>0,493989</b>
7	Treozin	0,295589	<b>0,492366</b>
8	Argenin	<b>0,273029</b>	0,115675
9	Serin	<b>0,271365</b>	0,079082
10	Meteonin	<b>0,2717</b>	0,169441
11	Lizin	<b>0,251102</b>	0,046493
12	Leytsin	<b>0,246381</b>	0,059826
13	Gulitamin kislota	<b>0,226986</b>	0,145965
14	Glitsin	<b>0,196819</b>	0,089332
15	Fenilaninanin	<b>0,17415</b>	0,151294
16	Prolin	0,166814	<b>0,667696</b>
17	Triptofan	<b>0,163814</b>	0,115831
18	Izoleytsin	<b>0,136983</b>	0,070162
19	Valin	0,128306	<b>0,584372</b>
20	Asparagin kislota	<b>0,124177</b>	0
<b>Jami</b>		<b>6,466223</b>	<b>4,16657</b>

Olingen natijalar, zig‘ir o‘simligi poyasi tarkibidagi aminokislotalar miqdori soya poyasidagi aminokislotalar miqdoridan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi. Zig‘ir poyasi tarkibida eng ko‘p (0,981 mg/g) alanin aminokislotasi uchradi. Soya poyasida uchramagan asparagin kislotasi ham mavjud bo‘lib uning miqdori 0,1241mg/g.ga teng. Chorva hayvonlari uchun muhim sanalgan *lizin* 0,251 mg/g, *riptofan* 0,163



mg/g, *leytsin* 0,246 mg/g aminokislotalari soya poyasidagiga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ozuqlar uchun mineral tarkibning muhim ekanligini inobatga olgan holda, har ikki o‘simlik poyasining elementar tarkibi aniqlandi. Aniqlash uchun induktiv bog‘langan argon plazmali mass-spektrometriya usulidan [11] foydalanildi. Olingan natijalar 3-jadvalda umumlashtirildi.

3-jadval

**Zig‘ir va soya o‘simligi poyalarining eklementar tarkibi**

<b>№</b>	<b>Kimyoviy elementlar</b>	<b>Zig‘ir poyasi</b>	<b>Soya poyasi</b>
<b>1</b>	<b>Li 7 (ppm)</b>	0,321	0,209
<b>2</b>	<b>Be 9 (ppm)</b>	0,066	0,063
<b>3</b>	<b>B 11 (ppm)</b>	4,962	4,917
<b>4</b>	<b>Na 23 (ppm)</b>	1516,482	342,390
<b>5</b>	<b>Mg 24 (ppm)</b>	1517,493	3025,443
<b>6</b>	<b>Al 27 (ppm)</b>	11,862	9,747
<b>7</b>	<b>Si 28 (ppm)</b>	668,552	601,594
<b>8</b>	<b>P 31 (ppm)</b>	430,875	501,281
<b>9</b>	<b>S 32 (ppm)</b>	732,839	669,107
<b>10</b>	<b>K 39 (ppm)</b>	5806,027	3502,399
<b>11</b>	<b>Ca 42 (ppm)</b>	1640,546	1726,624
<b>12</b>	<b>Ti 48 (ppm)</b>	3,244	6,345
<b>13</b>	<b>V 51 (ppm)</b>	0,053	0,049
<b>14</b>	<b>Cr 52 (ppm)</b>	0,303	0,310
<b>15</b>	<b>Mn 55 (ppm)</b>	0,275	0,245
<b>16</b>	<b>Fe 57 (ppm)</b>	55,641	59,858
<b>17</b>	<b>Co 59 (ppm)</b>	0,016	0,017
<b>18</b>	<b>Ni 60 (ppm)</b>	0,071	0,107
<b>19</b>	<b>Cu 63 (ppm)</b>	0,060	0,137
<b>20</b>	<b>Zn 66 (ppm)</b>	0,304	0,279
<b>21</b>	<b>Ga 69 (ppm)</b>	0,071	0,080
<b>22</b>	<b>As 75 (ppm)</b>	0,013	0,013



<b>23</b>	<b>Se 82 (ppm)</b>	0,066	0,005
<b>24</b>	<b>Rb 85 (ppm)</b>	0,179	0,107
<b>25</b>	<b>Sr 88 (ppm)</b>	2,228	3,239
<b>26</b>	<b>Zr 90 (ppm)</b>	0,010	0,016
<b>27</b>	<b>Mo 98 (ppm)</b>	0,032	0,205
<b>28</b>	<b>Cd 111 (ppm)</b>	0,001	0,001
<b>29</b>	<b>Sb 121 (ppm)</b>	0,001	0,002
<b>30</b>	<b>Ba138 (ppm)</b>	0,431	0,505
<b>31</b>	<b>W 184 (ppm)</b>	0,002	0,002
<b>32</b>	<b>Hg 202 (ppm)</b>	0,003	0,000
<b>33</b>	<b>Tl 205 (ppm)</b>	0,001	0,001
<b>34</b>	<b>Pb 208 (ppm)</b>	-	-
<b>35</b>	<b>U 238 (ppm)</b>	0,005	0,005

Olingan natijalar zig‘ir poyasidagi ayrim makroelementlar Na (1516,4 mg/kg), K (5806,027 mg/kg), S (732,839mg/kg) miqdori soya poyasidagidan yuqori, Ca (1640,546 mg/kg), P (430,875mg/kg) elementlari esa bir oz kam miqdorda aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki zig‘ir poyasidan foydalanib tayyorlanadigan chorva ozuqa maxsulotlari soya poyasidan tayyorlanadigan ozuqa maxsulotlaridan kimyoviy tarkib jihatdan qolishmaydi. Kelgusida zig‘ir poyasidan to‘yimli pichanlar tayyorlash va uni maxsus go‘sish, sut yo‘nalishida boqiladigan hayvonlarning ozuqa ratsioniga qo‘sish mumkin. Yuqorida olingan natijalar buning uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. D.R.Tojiboyev, M.Yu.Isaqov, V.U.Xo‘Jayev., “Ayrim o‘simlik moylari yog‘ kislotalarining IQ va xromatomasspektroskopiya spektorlarining qiyosiy tahlili” Qo‘qonDPI Ilmiy xabarlar 2022-yil 1 (5)-son maqola
2. Yu.V.Isakov, Yu.M.Isakov, V.U. Mukimjonova., “Микробиогенные элементы в системе “порода – почва –Растение” на лугово-оазисных почвах западной ферганы” “Universum: химия и биология” 25.08.2022 г. № 26159



- 3.S.D.Boboyev, R.T.Adizov, H.B.Ergasheva, B.B.Toirov, N.N.Tursunova “Omixta yem ishlab chiqarish” kasb-hunar kollejlari uchun qo‘llanma., Toshkent-2004.
4. H.N.Atabayeva, Z.K.Yuldasheva, A.M.Islamov., Botanika yem-xashak yetishtirish agronomiya asoslari., Toshkent «Yangi asr avlodi» 2008
5. R.Hamraqulov, K.Karibayev. Qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirish. Toshkent 1999.
6. С.Н. Хохрин Кормление с/х животных. Колос С.2007 г.
7. В.Н.Баканов, В.К.Менкин. Кормление с/х животных, М. 1989 й.
8. Г.А.Богданов. Кормление с/х животных М.1990 й.
9. Методы контроля. Химические факторы. Руководство по методам контроля качества и безопасности биологически активных добавок к пище. Руководство Р 4.1.1672-03. М.: Федеральный центр госсанэпиднадзора Минздрава России, 2004
10. M.Sattarov, ilmiy xodimlar R.Saitanova, N.Otamirzaev, .Qodirov, H.Idrisov, N.Tuyg‘unov, B.Qalandarov, M.Ahtamov, M.Hayitov,M.Raxmanov., “Andijon viloyatida soya yetishtirish agrotexnologiyasi” fermerlar uchun tavsiyanoma., Yoshkent-2017.
11. D.R.Tojiboyev., M.Yu.isaqov “Biogen elementlarning sistematikasi va soya donlari hamda zig‘ir urug‘lari tarkibidagi tasnifi” Qo‘qonDPI Ilmiy xabarlar 2022-yil 4 (8)-son maqola.

**Research Science and  
Innovation House**